

**XORAZMDAGI O'Z QATLAMGA OID TOPONIMIK
INDIKATORLARNING TARIXIY ASOSLARI**

Xolmuradova Jamila Irmetovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti, f.f.n.

jamilaxalmuratova66@mail.ru

To'xtayeva Nigora Tursunovna

TAFU 1- bosqich magistranti

Annostatsiya: Ushbu maqolada Xorazmdagi toponimik indikatorlarning leksik xususiyatlari, mavjud indikatorlarning asosiy qismi turkiy tillarga xos bo'lib, ko'pchiligi hozirgi o'zbek adabiy tilimizdan, shuningdek, boshqa o'zbek shevalaridan hamda turkiy xalqlarda mavjud indikatorlardan, ko'pincha, fonetik jihatdangina farqlanishi haqidagi fikr-mulohazalar bildiriladi.

Kalit so'zlar: toponimika, indikator, leksik, sheva, lingvistik, nolingvistik, tarixiy-etimologik, turkiy, manba, variant, til, areal, semantik.

Xorazmdagi toponimik indikatorlarni o'rghanish jarayonida ularda mazkur hududda yashovchi xalq tilining leksik xususiyatlari aks etishi ma'lum bo'ldi. Mavjud indikatorlarning asosiy qismi turkiy tillarga xosdir. Indikatorlarning ko'pchiligi hozirgi o'zbek adabiy tilimizdan, shuningdek, boshqa o'zbek shevalaridan hamda turkiy xalqlarda mavjud indikatorlardan, ko'pincha, fonetik jihatdangina farqlanadi: *ag'ach, adaq, bazar, bänt, dag '(tag')*, *däpä (tepä)*, *oba, avul* va hokazo. Shuningdek, ba'zi indikatorlar boshqa o'zbek shevalarida uchramaydi, yoki juda kam qo'llaniladi: *arna, alaң, bəgət, karыız, qarыт, chägä, yasqa* va boshqalar.

Bulardan tashqari, ko'pgina toponimik indikatorlarning ma'nosi eroniylar asosida izohlanadi. Ularning tarqalish areali ham ko'plab hind-yevropa tillarini qamrab oladi: *yab, äshhär, gädyk, deh, känd, kard, parsaң, payan, sähgäl, xädrä* kabi.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Bulardan tashqari, indikatorlar tizimida turli xil lingvistik va nolingvistik omillar asosida mazkur hududda yashovchi xalq tiliga o‘tib qolgan arab, mo‘g‘ul, yevropa tillariga aloqador unsurlarni ham uchratishimiz mumkin. Shuningdek, bir qator toponimik indikatorlar XIII asrlargacha Xorazm aholisi tomonidan qo‘llanilib kelgan qadimgi xorazmiy tilining izlari deb atashga asos bor. Jumladan, *nixas*, *miyan*, *payan*, *ыстан*, *var (vara)*, *dähä(da:)*, *saqa*, *chartak*, *kärd*, *mädyr* kabi indikatorlar boshqa eroniy tillar toponimik tizimida deyarli uchramaydi. Shuningdek, ularning ko‘pchiligi o‘zining semantik xususiyati bilan keskin farq qiladi. Bu holat Xorazm shevalarini o‘rgangan tadqiqotchilar tomonidan ham qayd etilgan edi.

Ishimizning ushbu qismida toponimik indikatorlar tarixiy-etimologik xususiyatiga ko‘ra guruhlarga ajratib o‘rganildi va ayrim indikatorlarning etimologik tavsifini berishga harakat qildik. Bu, asosan, boshqa turkiy tillarga qiyos qilish orqali amalga oshirildi.

Алаң (ad.orf. **olong**). Xorazmda ushbu indikatorning ikki xil ma’nosi qayd etiladi. 1. Angiz (hosili yig‘ib olingan yer), bo‘z yer, qo‘riq, yalanglik. 2. Suvi oqmaydigan eski ariq o‘rni.

E.Murzayevning qayd qilishicha, ushbu indikatorning tarqalish areali juda keng bo‘lib, boshqird, tuva, yoqut tillarida “*o‘rmondagi yalanglik*”, Oltoyda esa “*maydon, vodiy, tekislik*”, Turkiyada “*o‘tloq*”, chuvash tilida esa “*sahro, cho'l*” ma’nolarini bildiradi. U Rossiyaning Vladimir, Perm, Tver, Tambov guberniyalarida juda ko‘plab toponimlarni yasashda ishtirok etgan. Umuman, bu indikator joy nomlari tarkibida juda keng qo‘llaniladi. Masalan: *Dashlyalañ* (Turkmaniston), *Alañ* (Tatariston), *Avlan* (Yakutiya), *Yalanets* (Vinnitsa), *Avlankøl* (Janubiy Turkiya) va hokazo.

Indikatorning boshqa “*tепа, тепалик, дaryoning baland qирг‘ог‘и*” kabi ma’nosi ham bor. E.V.Sevortyanning fikricha, ushbu ma’no bu so‘zni turkiy tillardagi *al* – “*balandlik, yuksaklik*” o‘zagi bilan bog‘laydi.

Атав (ad.orf. **atov**). Mazkur indikator Xorazm shevalarida “*Orol, orolcha*” ma’nosini ifodalaydi. Shuningdek, indikator boshqa turkiy xalqlar tilida va qadimgi

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

yozma manbalarda ham uchraydi. Uning: 1) orol; 2) ko'l, daryo o'rtasida hosil bo'lgan bir parchayer; 3) qamishzor, changalzor (eski o'zbek tilida) kabi ma'nolarga ega. Turkman va ozarbayjon tillarida *ada* shakliga ega. Bulardan tashqari, indikator Kavkaz, Kavkazorti, Qrim, Turkmaniston va Turkiyada yashovchi xalqlar tilida ham uchraydi va *ata* shaklida qo'llanib, "orol" ma'nosini ifodalaydi. Qrim tatarlari tilida *adak*, turk tilida *adoq* shaklida uchraydi.

V.I.Savinaning qayd qilishicha, ushbu turkiy indikator eroniylarga ham o'tgan: fors: ade "orol", afg'on: *ada* "to'xtash joyi" kabi.

Xorazmda ushbu indikator *Bozatav*, *Qoshatav*, *Ulliyatav*, *Shammiyatav* kabi nomlarni yasashda qatnashgan. *Adagum* (Krasnodar o'lkasi), *Garada* – "Qora orol" (Turkmaniston) nomlari ham ushbu indikator vositasida yasalgan.

Bet (ad.orf. *bet*). Ushbu so'z Xorazm shevalari leksikasida hozir ham mavjud bo'lib, quyidagi ma'nolarni ifodalaydi: 1) tomon, taraf; 2) varaq; 3) yuz, aft, bashara. Geografik termin sifatida "*adir, qir, tog' oldi tepaliklaridagi tekis yoki salgina qiya yonbag'ir va yuzalar*" ni anglatadi. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida keng tarqalgan.

Indikator sifatida bir qator turkiy tillarda mavjud. Jumladan, qirg'iz tilida "*tog'ning quyi qismini, uning bir tomonini*" anglatadi. Qadimgi turkiy tilda aynan "*yuz, aft, bashara*" ma'nosini bildirgan (DTS). K.Konkashpayevning xabar berishicha, qozoq tilida *betkey* (-key qo'shimchasi orqali yasalgan) shakli uchraydi va "*tomon, tog'ning yassi qismi*" ma'nosini anglatgan. Darhaqiqat, -key qo'shimchasi *terskey*, *kungey* so'zlarini yasagan. *Kungey* "*tomon, tog'ning quyoshga qaragan tomoni, janub*" ma'nosini bildiradi. Bu so'zning antonimi sifatida *terskey* so'zi mavjud bo'lib, "*quyoshga teskari tomon, orqa tomon*" ma'nosini anglatadi. *Kunbotish* va *kuntug'ish* so'zlarini ham g'arb va sharq tomonlarni bildiradi. Umuman, *bet* indikatori *Tashlybet*, *Kunbet* (Dog'iston), *Gyllanbet* (Xorazm) kabi ko'plab toponimlar tarkibida ishtirok qilgan.

Tav (ad.orf. *tog'*). Ushbu indikator deyarli barcha turkiy tillar toponimik tizimida uchraydi. U turli fonetik variantlarga ega: *tog'*, *tau*, *too*, *tuu*, *tya* va boshqalar. Bu indikator turkiy tillardan eroniylarga o'tgan bo'lib, ularda

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

qo'llanish va semantikasi jihatdan bir oz farq qiladi. Afg'onistonda **dog'** "tog'; **cho'l, dala'**"; Pokistonning g'arbiy qismida "*dala*" ma'nosidan tashqari "*yo'l*" ma'nosini ham ifodalaydi. Qrimda "*o'rmon, tog' o'rmoni*" ma'nosida qo'llaniladi. Tarkibida ushbu indikator bo'lgan toponimlar ko'plab uchraydi: *Ayudag, Chatirdag* ("Oyiqtog'i, Chodirtog'i" ma'nosida, Qrim), *Kopetdag* (Turkmaniston), *Yarudag* (Qizil tog', Dog'iston). Ayrim tadqiqotchilar Amudaryo bo'yidagi *Qaurdoq* nomini ham shu so'z bilan bog'laydi, ya'ni: "*gaur, dog*" (Kafir tog'i).

Xorazmdagi *Qubatav, Yumrýtav, Häktav, Qaratav* kabi nomlar ham ushbu indikator orqali vujudga kelgan.

Qayyr (ad.orf. *qayir*). Xorazm shevalari leksikasida turli ma'nolarda uchraydi. Jumladan, qayir: 1) Amudaryo o'zanining o'zgarishi natijasida hosil bo'lgan (daryo oqmay qolgan) yer; 2) daryoning qum aralash loyqa tagi; 3) Amudaryoning sayoz joyi; 4) sero'g'ityer, balchiq aralash qum. M.Qoshg'ariyning lug'atida ham ushbu ma'noda qo'llanadi.

"Geografik terminlar va tushunchalar izohli lug'ati" da *qayir* poyma daryo, kanal va ko'llar bo'ylab cho'zilgan, suv ko'paygan vaqtida suv bosib ketadigan pastak zaxob yerlar deb izohlangan. Qayirlarni, odatda, o'tlar, to'qay o'simliklari qoplagan bo'ladi. Ularda chuqurliklar, eski o'zanlar ko'p bo'ladi. Qayirlarning kengligi daryo oqadigan joy relefi xarakteriga qarab, bir necha metrdan o'nlab kilometrgacha boradi.

Qayir indikator sifatida ko'plab joylarda uchraydi. Qiyoq qiling: qirg': *qayraq*, mo'g'ulcha *xayr* "sayozlik, sayyoz joy"; turk tilida *kair* "tuzloq" va hokazo.

Ko'plab toponimlar tarkibida uchraydi: *Qair, Qayroq, Qayroqko'l* (Qozog'iston), *Qayirliq, Qayirti* (Olttoy), *Qairi* (Xerson viloyati), *Qairchiq* (Krasnodar) va hokazo.

Xorazmda *Qayyrlыq, Qayyrtaxta, Kənäqayyr, Atayqayyr* kabi qator nomlar yasashda ishtirok etgan.

May (ad.orf. **moy**). Ushbu indikator Xorazmdagi *Maylyjängäl, Sarýmay, Maylykəl* kabi toponimlar tarkibida uchraydi. Tadqiqotchilar moy yer ostidan

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

yuzaga yaqin joylarda uchrashini va ushbu joyda neft borligiga ishora qilishni qayd etadilar. Bu fikr amalda o‘z ifodasini topgan. Darhaqiqat, *Moylajar* (Qashqadaryo), *Moylisuv* (Farg‘ona), *Moybuloq*, *Moyzak* (Buxoro) kabi joylardan neft konlari topilgan.

E.M.Murzayev *may* so‘zining turklarda “*muqaddas, avliyo*”, jumladan, bolalarni asrovchi ma’bud ma’nosini mavjudligini qayd etadi (Murzayev, Lug‘at, 358). Oltoy tilida *Mayene*, O‘rxun yodgorliklarida *umey* “*suv va yer homysi*”, qozoqlarda *may* “*bitik o‘yilgan tosh, har xil shakllar o‘yilgan xarsang*” ma’nolarini anglatadi.

Bu indikator ko‘plab toponimlar yasashda ishtirok etgan: *Maysor* (Omsk), *Mayilsay* (Qirg‘iziston), *Mayqayin*, *Mayqarag‘ay* (Qozog‘iston), *Mayli* (Jung‘oriya), *Qarmay* (Xitoy) va hokazo. Qozog‘istonda bu indikator bilan yasalgan yigirmadan ortiq nomlar qayd etilgan.

Oy (ad.orf. *o‘y*). Xorazm shevalarida “*pastlik, chuqurlik, jar*” ma’nolarida qo‘llaniladi. Bu indikator turkiy tillarning ko‘pchiligidagi ancha faoldir. Qiyos qiling: turk tilida *oj* “*chuqur, chuqurlik*”; boshqird tilida *uy* “*tog‘ orasidagi vodiy*”; qirg‘iz tilida *oy* “*pastlik, chuqur*”; oltoy tilida *oy* “*pastlik, chuqurlik*” va hokazo. Ko‘pchilik tadqiqotchilarining fikricha, ushbu indikator *o‘ymoq, qazilmoq* fe’li asosida yasalgan. *Oypan, Oyluk, Oyjyiq, Oypat* kabi shakllari ham ushbu so‘z asosida vujudga kelgan. Ayrim turkiy xalqlarda “*o‘tloq, dala, cho‘l*” ma’nolari ham mavjud bo‘lib, ko‘plab toponimlar yasashda ishtirok etadi. *Uy* (Boshqirdiston), *Oylu, Oylыk* (Oltoy), *Oytal* (Issiqko‘l), *Oymal* (Jambul), *Togon-oy* (O‘sh), *Qaraoy* (Aktyubinsk), *Qiziloy* (Gurev) va hokazo.

Hozirgi geografik terminlar tizimida ham *o‘y* “*jar, yer, pastlik yer, o‘ydim, past-baland, notejis yer*” ma’nolarida qo‘llaniladi. O‘yqin “*serjar yer*” ma’nosida ishlataladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ishaev A. Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalari. –Toshkent: Fan, 1977. – B. 121.
2. Madrahimov O. O‘zbek tilining o‘g‘uz lajhasi leksikasi.– Toshkent: Fan, 1973.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

- B. 151.
- 3. Mahmud Qoshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. T. III. – Toshkent, 1960. – B. 165.
- 4. Qoraev S., G‘ulomov P. Rahimbekov R. Geografiyadan izohli lug‘at. – Toshkent: O‘qituvchi, 1979. – B. 148.
- 5. Севорян Э.В. К отношению грамматики и лексики в тюркских языках, к проблеме словообразования // Вопросы узбекского языкознания. – Ташкент, 1954.